

Muborak yoshingiz bilan!



Joriy yilning 5 aprel kuni “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti “Mashinalardan foydalanish va ta‘mirlash” kafedrasini mudiri dotsent Iqambardiev Askar Kimsanovich muborak 60 yoshga to‘lganligi munosabati bilan fakultet dekani U. Qo‘ziyev institut rektorining jamoa nomidan yo‘llagan tabrigini o‘qib eshittirdi va institut hamda Kasaba uyushmasi tomonidan berilgan pul mukofotlari va esdalik sovg‘alari bilan taqdirladi.

Umri davomida ustoz - murabbiy sohasida faoliyat olib borayotgan ustozlarni mashaqqatli hamda mas‘uliyatli mehnatini har tomonlama rag‘batlantirish oliyjanoblikdir. Hurmatli Askar Kimsanovichni 60 yoshi bilan muborakbod etib, uzoq umr, sihat - salomatlik, oilaviy baxt tilaymiz va vatanimiz rivoji yo‘lida olib borayotgan ishlariga kelgusida zafarlar tilaymiz.

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov